

MUSTAQIL TA'LIM JARAYONIDA SHAHLO AHROROVA HAYOTI VA IJODINI O'RGANISH

Sharofova Zuhra Dilmurod qizi

Jizzax davlat pedagogika universtitetining
O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi 2-bosqich magistranti.

Annotatsiya: Maqolada mustaqil ta'lif jarayonida shoira, yozuvchi, dramaturg va tarimon, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi a'zosi – Ahrorova Shahlo O'rino boyevnaning hayoti va ijodi keltirilgan.

Kalit so'zlar: adabiyotshunoslik, pedagogika, mustaqil ta'lif, shoira, yozuvchi.

Jadallik bilan rivojlanayotgan bugungi kunda ta'limga berilayotgan e'tiborni alohida ta'kidlash lozim. Ma'lumki, davlatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng ta'lif tizimida amalga oshirilgan va oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, qabul qilinayotgan farmon hamda qarorlar fikrimiz asosidir. Yosh avlodning imkoniyatlari va qobiliyatlarining takomillashuvida ta'lif alohida ahamiyatga ega. Zotan, ma'naviyatli yoshlar jamiyat boyligidir. "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz"¹, deya ta'kidlagan edi Prezident Sh.Mirziyoyev. Shubhasiz, yosh avlodning zamon talablariga munosib, mustaqil fikr-qarashiga ega, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyat sohibi va dunyoning har bir burjidagi tengdoshi bilan erkin muloqotga kirisha oladigan shaxs bo'lib kamol topishida adabiyot va san'atning roli beqiyosdir.

Adabiyot darslarida yozuvchi hayot yo'li, ijodiy faoliyati haqida o'quvchilarga, talabalarga shunchaki ma'lumot berish oson, lekin ijodkorning hayotini uning ijodi bilan bog'lagan holda tushuntirib berish ustozlardan ancha mashaqqat talab etadi. Unga oddiy jarayon sifatida munosabat bildirish o'zini oqlamaydi. B.To'xliyevning adabiyot fanini o'qitish haqida bildirgan fikr-mulohazalari alohida ahamiyatga ega. Olim B.To'xliyev bu xususida tubandagicha fikr bildiradi: "Adabiyot o'qitish, boshqa fanlarni o'qitishdan anchayin keskin farq qiladi. Shunga ko'ra, uni fan sifatida qaraydigan bir guruhni tashkil etsa, adabiyot o'qitishni san'at turi sifatida baholab, adabiyot o'qituvchisining ishini ham san'atkorona bir ish sifatida baholaydiganlar ham kam emas"².

Shahlo Ahrorova hayoti va ijodi haqida umumta'lif maktablari darsliklarida ham, oliy ta'lif muassasalari adabiyotlarida ham ma'lumotlar uchramaydi. Shuningdek, shoira asarlarining adabiyot darslarida o'qitilishi borasida bugungi kunga qadar tadqiqotlar olib borilmagan. Bu esa Adabiyotshunoslik, Pedagogika fanlari oldida yechimini kutayotgan masalalar ko'p ekanligidan dalolat.

Yangi O'zbekiston yoshlarining dunyodagi so'nggi o'zgarishlardan xabardor bo'lishi ta'lif olish jarayonlarida, kasbiy faoliyatlarini rivojlantirib borishlari juda muhimdir. Buning eng samarali usuli – mustaqilta'lif bilam shug'ullanish, unda talaba mustaqil ravishda yangi ko'nikma hamda bilimlarni o'rganish tashabbusini o'z zimmasiga oladi. Mustaqil ta'lif intizom va o'z – o'zini rag'batlantirishni talab etadi.

Mustaqil ta'lif – o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo'lgan topshiriqlar, amaliy vazifalarni auditoriya hamda auditoridan tashqarida ijodiy va mustaqil bajarish asosida nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli

¹ WWW.lex.uz O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 - yil 3 - maydagi PQ - 4307 - son qarori.

² To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – b 28. '

faoliyatdir. O'rganilayotgan mavzuga va murakkablik darajasiga qarab, ular farq qilishi mumkin, ammo asosiylari, qoida tariqasida quyidagilar:

- o'quv jarayonida olingen bilimlarni mustahkamlash va tizimlashtirish;
- ilmiy adabiyotlar va turli axborot manbalari bilan samarali ishlash qobiliyatini shakllantirish;
- bilimlarni mustaqil tarzda olish hamda amaliyotda qo'llash;
- tanqidiy fikrlash, tahliliy va tadqiqotchilik qobiliyatlarini shakllantirish;
- vaqtin rejalshtirish va tashkil etish ko'nikmalarini rivojlantirish;
- o'z-o'zini nazorat qilish va ishni baholash ko'nikmalarini rivojlantirish;

Mustaqil ishning shunday asosiy uslubiy tamoyillari mavjud: maqsadlilik; izchillik, muntazamlik, mantiq, qulaylik, ilmiy xarakterga egalik. Demak, o'qituvchi oldindan e'lon qiladigan, talaba ish jarayonida aniqlaydigan mustaqil ishning maqsad va vazifalari ana shu tamoyillarga mos kelishi kerak.

Olima Zarifa Shamirzayeva ta'kidlaganidek, talabalarni doimo mustaqil ishslashga o'rgatish uchun quyidagi avtonom ishlarni boshqarish juda muhimdir:

- Talaba o'zining mustaqil izlanishlarini rejalashtiradi va ular o'qituvchi rahbarligida aniq o'quv topshiriqlari ustida muntazam va doimiy ishlaydilar;
- Mustaqil ishning har xil turlari mavjud bo'lib, ularning barchasi talabalarning ijodiy qobiliyatlarini oshirishga yordan beradi³.

Talaba mustaqil ishni bajarishga kirishar ekan, uning oldida bir qator vazifalar qo'yildi. Jumladan;

- yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- kerakli ma'lumotlarni izlab topish, o'rganishning qulay usullari va vositalarini aniqlash;
- axborot manbalari va manzillaridan samarali foydalanish;
- o'quv va ilmiy adabiyotlar, me'yoriy hujjatlar bilan ishlash;
- elektron o'quv adabiyotlar va ma'lumotlar banki bilan ishlash;
- internet tarmog'idan maqsadli fpydalanish;
- ma'lumotlar bazasini tahlil etish;
- topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondoshish;
- o'quv adabiyotlaridan mustaqil tarzda ilmiy axborotlarni ola bilish va boshqalar.
- Mustaqil ta'lim uchun berilgan "Shahlo Ahrorova hayoti va ijodini o'rganish" mavzusi bo'yicha talaba quyidagi yo'nalishda ma'lumotlar to'plashi maqsadga muvofiq.

1. Shoira hayot yo'li va faoliyati.

2. Shahlo Ahrorova ijodi.

3. Shoiraning yozuvchilik faoliyatini tadqiq qilish.

4. Adibaning tarjimalari.

5. Shahlo Ahrorova dramaturg.

6. Shahlo Ahrorova she'riyatining yetakchi tamoyillari.

7. Shoiraning ijtimoiy sohaga oid ilmiy asarlar tavsifi.

Talaba yuqoridaq mavzularda manbalarni tadqiq etgach quyidagi topshiriqlarni bajarishi mumkin: blits savollar, test, taqdimot, lirik va nasriy asarlar tahlili va boshqalar.

Shoira, yozuvchi, dramaturg va tarjimon, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi a'zosi – Ahrorova Shahlo O'rino boyevna 1967-yil, 20-dekabrda Jizzax shahrida ziyoli oilada tug'ilgan. Bo'lajak shoira dastlabki tahsilni o'z mahallasidagi o'rta maktabda oladi. Maktabni a'lo baholarga tamomlab, oliy o'quv yurti sari qadam tashlaydi. U 1984-1989-yillarda Toshkent xalq xo'jaligi instituti (hozirgi Iqtisodiyot universiteti) talabasi bo'ladi. Shoira bugungi kunga qadar respublikamizda turli jabhalarda, Izvozimlarda faoliyat olib borib yurtimiz ravnaqiga o'z hissasini qo'shgan. Serqirra ijodkor 1989-

³ Shamirzayeva Z. Mustaqil ta'limning maqsadi, shakli, mazmuni va vazifalari. – Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities Hosted online from Piano, Texas, USA. June, 2023. ISSN: 2835-3196. – 126 p.

PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

1-NOY ABR ,2024

1993 yillarda Jizzax tumani, 19-hunar-texnika bilim yurti o‘qituvchisi, 1993-1995 yillarda Jizzax tumani, Qishloq xo‘jaligi texnikumi o‘qituvchisi, 1995-1996 yillarda Jizzax shahar hokimligi Xotin-qizlar qo‘mitasi bosh mutaxassisi, 1993-1998 yillarda Jizzax shahar televide niyesi muxbiri (o‘rindoshlik asosida), 1996-2005 yillarda “Ma’naviyat va ma’rifat” markazi Jizzax shahar bo‘limi boshlig‘i, 2005-2006 yillarda Jizzax shahar hokimining o‘rinbosari – shahar Xotin-qizlar qo‘mitasi raisi, 2006-2007 yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi tinglovchisi, 2007-2014 yillarda Jizzax viloyati hokimining o‘rinbosari – Xotin-qizlar qo‘mitasi raisi, 2014- 2016 yillarda “A’lo kayfiyat” jurnali mutaxassisi, bosh muharriri, 2016-2017 yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti “Milliy g‘oya” kafedrasi o‘qituvchisi, 2017-2018 yillarda Oliy va o‘rtा maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi “Ma’naviyat va ma’rifat” markazi metodisti (o‘rindoshlik asosida), 2018-2021 yillarda Jizzax davlat pedagogika instituti “Falsafa TXT” kafedrasi o‘qituvchisi, 2021-2022 – yillarda “Sevimli” telekanali “Taqdirlar” telenovellalar loyihasi rahbari, 2022-yil 1-martdan hozirgi vaqtgacha Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi ijtimoiy ma’naviy tadqiqotlar instituti katta ilmiy xodimi lavozimida mehnat qilib kelmoqda. Shahlo Ahrorova oilali, to‘rt nafar farzandning mehribon onasi.

Shahlo Ahrorovaning “Yangi yil” nomli ilk she’ri 10 yoshligida Jizzax shahrining “Kommunizm sari” (hozirgi “Jizzax ovozi”) gazetasida nashr etilgan. Shundan so‘ng qator she’rlari turli gazeta hamda jurnallarda chop etildi. 1994 – yil ijodkorning dastlabki she’riy to‘plami – “E’zozim” keng jamoatchilikka taqdim etildi. Bundan ilhom olgan adiba o‘z ijodini yuqori cho‘qqilarga ko‘tarishga intiladi. Tinimsiz mehnat evaziga shoiraning 1997-yilda “Suydirdingiz, suymadingiz”, 2002-yilda “Mohim”, 2007-yilda “Seni o‘ylamoqdan voz kecholmayman”, 2009-yilda “Ishq nafasi”, 2012-yilda “Jiyda gulim” nomli she’rlar to‘plami, shuningdek, 2017-yilda “Dala hovlidagi qotillik” hikoya va qissalar to‘plami nashr ettirildi. Shoiraning Ikki yuzga yaqin she’rlari mashhur san’atkorlar tomonidan qo‘shiq qilib kuylangan.

Shoiraning “Dilbar” qissasi, “Er bermoq-jon bermoq”, “O‘gay ona” nomli ssenariylari asosida “O‘zbekiston” telekanalida kinofilmlar, teleserial sur’atga olingan. Shu bilan birgalikda, bir qancha ssenariylari asosida “Sevimli” telekanalida “Taqdirlar”, “Milliy” TVda “Iqror” va boshqa ko‘rsatuvlarda telenovellalari ishlanib, namoyish etilgan. She’rlari “Vatan saodati” deb nomlangan o‘zbek adabiyoti antologiyasiga kiritilgan.

Ijodkor tarjimachilik yo‘nalishida ham samarali ijod qilgan. U ijodiy faoliyati davomida Sharlotta Brontening “Jeyn Eyr”; Barbara Kartlendning “Sharqdagi muhabbat”, “Aspaziya”; Saltikov-Shedrinning “Bir shahar tarixi”; A.Radishchevning “Peterburgdan Moskvaga sayohat” romanlari va bir qancha poemalarini, V.Aksyonovning “Moskva afsonasi” trilogiyasining birinchi romani, Jek Londonning hikoyalarni, Mandelshtamning she’rlarini, turk biznesmeni Akin Ongorning “Mendan so‘ng davomi” deb nomlangan asarini ham rus tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Nomlari sanab o‘tilgan asarlardan “Jeyn Eyr”, “Bir shahar tarixi”, “Peterburgdan Moskvaga sayohat”, “Mendan so‘ng davomi”, V.Aksyonovning “Qishning zuryodi” asarlari hamda Mandelshtam she’rlari tarjimasi kitob holida qolganlari esa “Jahon adabiyoti” va boshqa jurnal, gazetalarda nashr ettirilgan.

Shoira nafaqat ijodiy asarlar bilan, shuningdek, ilmiy-nazariy maqolalar, qo‘llanmalar bilan jamiyatimiz rivojiga hissa qo‘shib kelmoqda. Bugungi kunga qadar uning yuzga yaqin ilmiy maqolalari, “Ma’naviyat eng ta’sirchan va qudratli qurolimiz” deb nomlangan risolasi, “Milliy qadriyatlar va Navro‘zning milliy-ma’naviy xususiyatlari” nomli ilmiy qo‘llanma, “Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda milliy qadriyatlarning o‘rni” nomli monografiyasi, migrantlar uchun “Vatannoma” nomli qo‘llanmasi tayyorlangan.

Vatanimizda qalam tebratayoigan shoir hamda yozuvchilar salmog‘i ko‘p. Ularning barchasining ham hayoti va ijodini umumiy o‘rtा ta’lim, oliy ta’lim darsliklariga kiritishning imkonи kam. Shuning uchun ularning hayotiy faoliyatları, tajribalari, ijodlarini mustaqil ta’lim tarzida talabalarga berish kerakligi ko‘rsatib o‘tildi.

Turli adabiyotlar, internet ma'lumotlari, shoira Shahlo Ahrorova bilan suhbat asosida ijodkorning hayoti va ijodi haqida ma'lumotlar tayyorlandi.

Mustaqil ta'lim jarayonida ijodkorning hayoti va ijodi qanday usul va vositalar orqali o'r ganilishi tahlil qilib berildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni (2020-yil 23 sentabr). / Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son
3. Ahrorova Sh. E'zozim. – T.: Spitamen. 1994.
4. Ahrorova Sh. Mohim. – T.: G'afur G'ulom. 2002
5. Ahrorova Sh. Ishq nafasi. Sherlar va qissalar. – T.: G'afur G'ulom. 2012.
6. Ahrorova Sh. Jiyda gulim. Dostonlar va she'rlar. - T.: Adib. 2012
7. Ahrorova Sh. Dala hovlidagi qotillik. – T.: noshirlik yog'dusi. 2017
8. Ahrorova Sh. Ma'naviyat eng ta'sirchan va qudratli qurolimizdir. – T.: Ma'naviyat. 2022
9. Narshaxiy. Buxoro tarixi. Toshkent. Kamalak, 1994.